

2025-yil 4-avgust

Importni qisqartirish - mahalliyashtirish orqali amalga oshmoqda



MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI NATIJALARI

2025-yilning 1-yarim yilligi bo'yicha

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar orasida:

- natriy sianid
- polivinilxlorid
- poliakrilamid
- oltingugurt-magniy mikroelementlari bilan boyitilgan karbamid
- kalsinatsiyalangan soda kabi muhim kimyoviy mahsulotlar ham bor.



29 turdagi

29-turdagi mahalliy mahsulot ishlab chiqarildi



2,3 trln so'm

umumiy qiymati 2,3 trln so'mni tashkil etdi



141,4%

rejaga nisbatan 141,4 foizga teng bo'ldi



2025-yil yakuniga **31 ta loyihani** amalga oshirishni rejalashtirilgan



4 trln so'mlik mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, ichki xomashyo va resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, importga bo'lgan qaramlikni kamaytirish bo'yicha izchil ishlar olib

borilmoqda. Bu jarayonda kimyo sanoati alohida o'rin tutadi. Xususan, "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan Mahalliyashtirish dasturi doirasidagi natijalar buni yaqqol tasdiqlaydi.

Jumladan, 2025-yilning yanvar-iyun oylari davomida jamiyat tomonidan 29 turdagi mahalliy mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy qiymati 2,3 trillion so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich rejaga nisbatan 141,4 foizga teng bo'lib, mahalliyashtirish sohasida olib borilayotgan samarali siyosatning yorqin natijasidir.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar orasida natriy sianid, polivinilxlorid, poliakrilamid, karbamid, kalsinatsiyalangan soda kabi muhim kimyoviy moddalar ham bor. Ushbu moddalar nafaqat ichki bozor ehtiyojini qoplashda, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"O'zkiyosanoat" AJ 2025-yil yakuniga qadar yana 31 ta loyihani amalga oshirishni rejalashtirgan bo'lib, ular orqali qo'shimcha ravishda 4 trillion so'mlik mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Bu kabi loyihalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ulushini kengaytirish va mamlakat sanoatidagi innovatsion salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/importni-qisqartirish-mahalliyashtirish-orqali-amalga-oshmo>